

## MATEMATIKAO'QITISHDA KASBGA DOIR TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISH

**Yulchiboyeva Gulnozaxon Baxodirovna**

*O'zbekiston Respublikasi IIV Farg'ona akademik litseyi*

*Matematika fani bosh o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Buyuk faylasuf Platon "Odamlar tug'ulganlarida bir-biriga o'xshamaydilar, ularning tabiati ham turlicha, biror faoliyatga nisbatan qobiliyat, layoqat darajalari ham bir xil bo'lmaydi. Shu sababli, tug'ma iste'dod nishonalariga mos bo'lgan yumishni katta hajmda, durustroq va osonlik bilan bajarish mumkin bo'ladi" deb yozgan edi. Ushbu maqolada o'quvchilarni kasbga yo'llashga doir ilmiy-nazariy asoslar va matematika ta'limi jarayonida ularni kasbga doir tushunchalarni shakllantirishga qaratilgan kasbiy mazmunli masalalar foydalanish bo'yicha tavsiyalar berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *matematika, kasb, yo'nalganlik, masala, bilim, ko'nikma, malaka, funksiya.*

Insonkasb tanlashda adashmasligi kerak. To'g'ri tanlangan kasb insonni baxtli qiladi, unga obro'-e'tibor keltiradi, hayotiga mazmun baxsh etadi, noto'g'ri tanlangan kasb esa, aksincha inson hayotida mazmunsiz yashashiga sabab bo'lishi mumkin. Shuning uchun yoshlar kasb tanlashda adashmasligi va o'z hayotini mazmunli va samrali qilib qurishi kerak bo'ladi.

Yosh avlodga ta'lim berish bilan birga ularga kelajakda to'g'ri kasb tanlashga yo'llash ham ta'lim oldida turgan vazifalardan biridir. Jamiyatda mehnat bozori mavjud ekan ishchi xodimlarga bo'lgan talab ham mavjud bo'ladi. Xodimlar esa yuqori malakali, bilimli, yuksak salohiyatli, ijodkor, keng fikr yurutuvchan, raqobatbardosh bo'lishi kabi talablarga javob berishi kerak. Buning uchun esa avvalo bo'lajak kadr kasb sohasini to'g'ri tanlashi lozim bo'ladi.

Kasb tanlashga doir ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar olib borgan rossiyalik olim I.M.Kondakov 1997 yilda o'smirlarga xos bo'lgan eng muhim kasbiy omillar ro'yxatini tuzdi va olingan tadqiqiy natijalarni matematik — statistik usulda qayta ishlab faktorli tahlillar asosida besh yo'nalishdagi omillarni ajratib ko'rsatgan

Birinchi yo'nalish kasb tanlashda qat'iyatsizlik omili

Ikkinchi yo'nalish kasb tanlashda ratsionallik, teranlik omili

Uchinchi yo'nalish — bo'lajak kasbning istiqboliga nisbatan optimistik munosabat

To'rtinchi yo'nalish — kasb tanlashda o'z imkoniyatlarini yuqori baholash

Beshinchi yo'nalish — kasb tanlashda boshqalarga bog'liqlik.

Kasb tanlashdagi ilk xatolardan biri bu kasb va mutaxassislikning o'zaro farqlarini bilmaslikdir. O'zbek tilining izohli lug'atida esa kasb tushunchasi shunday keltiriladi:

"Kasb – ish faoliyatining ma'lum tajriba, tayyorgarlik talab etadigan biror turi, sohasi."

Kasb tushunchasiga ta'rifni E.N.Prohitskaya shunday beradi:

Kasb – jamiyat uchun zarur bo'lgan, ijtimoiy mehnat taqsimoti natijasida chegaralangan, insondan jismoniy, aqliy, ma'naviy kuch talab etuvchi va sarflangan kuch evaziga insonga mavjud bo'lish hamda rivojlanish imkonini beruvchi faoliyat sohasi. Masalan shifokor, o'qituvchi va h.k.

Mutaxassislik – bu bitta kasb ichida tor doiradagi faoliyat turi.

Masalan matematika o'qituvchisi, fizika o'qituvchisi, stomatolog, terapevt va kardiolog.

O'quvchilarning o'zaro farqini bilib olishi uning kelajakdagi kasbi uchun aniq maqsadlar qo'yishi uchun zamin yaratishi mumkin. O'qituvchi esa uning kasb sohasini egallashida kerak bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan pedagogik faoliyatni amalga oshirishi belgilangan kasbiy faoliyatining muhim qismi hisoblanadi.

Matematikani o'qitish jarayonida kasbga yo'naltirish ishlari matematikadan sinf dars sistemasida quyidagicha amalga oshiriladi:

- Matematik tushuncha va qonuniyatlarni kasb sohalari bilan o'zaro bog'lab tushuntirish;
- Matematik kasbiy mazmunli masalalardan foydalanish;
- Matematika darslarida kasbiy sohalarga aloqadorlikda aks ettirilgan matematik o'quv-ko'rgazmali qurollardan foydalanish.

Matematik kasbiy mazmunli masalalardan foydalanish deganda avvalo kasbiy mazmunli masala tushunchasini keltirib o'tishimiz lozim.

Kasbga yo'naltirishga xizmat qiluvchi amaliy masalalar bu kasbiy mazmundagi masalalar bo'lib, "bir tomondan matematik mazmunga ega bo'lgan, ikkinchi tomondan kasbiy faoliyat uchun foydali masalalar tushuniladi" .

Matematika o'qituvchisi tomonidan o'quvchilarni kasbga yo'llash imkoniyati keng bo'lib kasbiy mazmunli matematik masalalar orqali ularning kasbiy tushunchalarini shakllantirish mumkin. O'quvchi matematik bilimlarini qo'llagan holda kasbiy mazmunli masalalarni yechishi lozim bo'ladi. Bunda bir tomondan matematik bilimlar mustahkamlansa, ikkinchi tomondan kasbiy tushunchalarni o'zlashtirish amalga oshiriladi. Kasbiy tushuncha deganda o'quvchi uchun tushunarli va kasb sohalari mavjud atamalar qo'llanilishi yoki o'qituvchi tomonidan izohlanishi orqali tushunib yetishiga erishish lozim. Belgilangan tartibda kasbiy mazmunli masalada o'quvchining matematik bilimlariga mos ravishda berilgan bo'lishi lozim. Bunda mavzuning kelib chiqishiga ko'ra o'qituvchi tomonidan kasbiy mazmunli masala keltiriladi. Bu orqali kasbiy tushunchalarni va matematik bilimlarni o'zlashtirilishi va mustahkamlanishiga erishish mumkin.

Xulosa o'rnida matematika ta'limida faqat matematik bilimlar bilan o'quvchilarni qurollantirish emas, balki ularning kasbiy tushunchalarini shakllantirish dolzarb masala hisoblanadi. Zero matematik bilimlarini amaliy va kasbiy jarayonda qo'llay olmasa u holda matematika ta'limidagi asosiy vazifa bajarilmagan hisoblanadi. Shuning uchun matematika ta'limida kasbiy mazmunli masalalardan foydalanish lozim.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Кондаков И.М. Диагностика профессиональных установок подростков. Вопросы психологии №1997 стр.122-130
2. Psixologik xizmat. Darslik/ Z.T.Nishanova, Sh.T.Alimbayeva, M.V.Sulaymonov. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – T-2014. -424 b.
3. Alimatova G.R. –“Kollej o'quvchilarining matematik tayyorgarligini kasbga yo'naltirish metodikasi”. //Diss...ped.fan.nomzod.// Toshkent-2004. 130 bet
4. Algebra va analiz asoslari: O'rta maktabning 10-11-sinflari uchun darslik/ Sh.O.Alimov, Y.M.Kolyagin, Y.V.Sidirov va boshq.-T.:O'qituvchi, 1996.256 b.

**INTERNET SAYTLARI:**

5. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)